



## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QO`LLASHNING AHAMIYATI

*Qo'shaqova Feruza Orziqu洛vna*

*Jizzax Politexnika instituti akademik litseyi*

*Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lism samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta'limiyl o'yinlar o'quvchilarni faol ishtirokiga aylanish yo'llarihamda ona tili va adabiyot fanlaridagi muammoli mavzulardan kelib chiqib, bog'liq muammoni ajratib olish orqali yetuk malakaga ega bo`lishlar masalalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar.** ta'limiyl o'yinlar, texnologik xarita, muammoli vaziyat, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar.

### KIRISH

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globllashuv vaqtida o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lism jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtida, mustaqil O'zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzlusiz ta'linda masofaviy ta'limiyl qo'llab, o'quvchilar bilimini baholashda raqamlitexnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lism-tarbiya berish, ta'larning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lism jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo`lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni



rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lif jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun akademik litseylarda zamonaviy o`qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir.

Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Darslarni innovasion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobjiy natija beradi, chunki o`qituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o`zgaradi.<sup>4</sup>

O`quv mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o`yinlardan foydalanish o`quvchilarni mustaqilfikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo`lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz:

Mashg`ulotni o`tkazish tartibi muammo o`zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o`rtasi bo`lib, bunda muammoning dolzarbligi va o`ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg`ulotda o`qituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni o`tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi.

Muammoli ta'limning o`ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u o`quvchiga qo`yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so`z va atamalar, asar g`oyasi hamda ma'nosini o`zaro qiyoslash, o`zi uchun eng to`g`ri yechim tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiya o`quvchining imkoniyatlaridan o`zaro uzviylik va uzlucksizlikdan foydalanish, izchil va mantiqiy fikrlash

<sup>4</sup> "Darsda hammasi bo`lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan". (Совершенствование процесса обучения. М. 2011. 149 стр.).



darajasini yaxshilaydi. O`rganuvchi sub'ektning o`ziga bo`lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga yo`naltiradi.

*Texnologyaning afzalliklari.* O`quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko`nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni. mantiqiy fikrlashni o`rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o`rganadi.

*Kamchiliklari.* Vaqt ko`p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to`liqinobatga olinmasligi mumkin. O`zaro bir to`xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va h.k.

*Muammoli vaziyat va muammoning bayoni.* Tafakkur - inson oldida turganmasala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo`lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi hamda muammoni yechishga qaratilgan bo`ladi.

*Muammoli vaziyatni shakllantirish tamoyillari.* Muammoli o`quv toshiriqlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o`quvchilarni turli muammolardan chiqib ketish yo`llarini axtarishga, kezi kelganda ana shu muammoning yechimini topishga yo`naltirish lozimligi tushuntiriladi. Masalan, G'.G'ulomning "Mening o`g'rigina bolam" hikoyasi asosida o`quvchilarni asar matnidan kelib chiqib, muammoni topishga, muammoni keltirib chiqargan sabablar hamda ushbu muammoni hal etish yo`llari haqida fikrlar bildiriladi.<sup>5</sup> Masalan, hikoyadagi o`g'ri haqiqatan ham o`g'rimi, muammo si qo`yilsa, ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar - xalqning og'ir hayotga giriftor bo`lishi, mahalliy sharoitning og'irligi, noto`g'ri davlat boshqaruvi, ishsizlik, xalq boyligi huzurini boshqalar ko`rishi, urushning xalqqa yetkazgan zarari, deya mulohazalar bayon etilsa, muammoni hal etish yo`llari - mamlakat aholisini savodxon qilish, yurtni bosqinchilar zulmidan ozod etish, mingboshi, ellikboshi kabi chalasavod rahbarlar o`rniga savodli xalq vakillaridan tayinlash, ishsizlikni bartaraf etish, jamiyatni yanadarivojlantirishga o`z hissasini qo`shish kabilar nazarda tutiladi.

*Muammoli vaziyat yaratish usullari:*

<sup>5</sup> www.ziyo.net



- o`qituvchi o`quvchilarga dars mavzusi bilan bog`liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo`lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo`lmagan, ortiqcha ma'lumotlar bo`lgan yoki savolning qo`yilishi noto`g`ri bo`lgan masalalarini yechishni taklif etadi va boshqalar.

Dars ta'limning mazmuni, metodi va shakli kabi tushunchalar doirasida chegaralanib qolmaydi. Akademik litseydagi ta'lim, tarbiya va rivojlanishni pedagog va o`quvchilarni o`zaro hamjihat, hamkorlikdagi faoliyatları orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, darsning sifati, samaradorligi o`qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko`rishiga bog`liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamон ilg`or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalanishi alohida o`rin tutadi.

## ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. / Barkamolavlod – 5. O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 20-29 betlar.
2. “Tilshunoslik atamalarining izohli lug’ati ”. N.Uluqov.Namangan
3. “Darsda hammasi bo`lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan”. (Совершенствование процесса обучения. М. 2011. 149 стр.).
4. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)